



## RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi talabasi  
Musaxo'jayeva Robiya Umidilloxon qizi*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233763>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston respublikasida alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar uchun qabul qilingan qarorlar va ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning asosiy xususiyatlari, ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar, ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'ziga xos jihatlar tahlil qilinadi. Ushbu bolalar kognitiv, nutqiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishlari sababli, ularga maxsus pedagogik yondashuv talab etiladi. Maqola maxsus pedagogika, defektologiya va logopediya sohasida ishlovchi mutaxassislar hamda ot-onalar uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** ruhiy rivojlanish sustligi, maxsus pedagogika, defektologiya, nutqiy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, psixologik xususiyatlar, inkluziv ta'lim, logopediya, pedagogik yondashuv, diagnostika, psixokorreksiya, ijtimoiy moslashuv, bolalar psixologiyasi, ta'lim texnologiyalari, nutq buzilishlari, individual ta'lim dasturlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar (RRSB) – bu umumiy aqliy rivojlanish sur'ati yoshiga mos kelmaydigan, lekin oligofreniyaga ega bo'lmagan bolalar guruhidir. Ular asosan xotira sustligi, nutqiy rivojlanishdagi orqada qolish, ijtimoiy moslashuv muammolari, mustaqil qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar bilan ajralib turadi. RRSBning asosiy sabablari turlicha bo'lib, ular orasida tug'ma va orttirilgan omillar mavjud. Tug'ma omillarga genetik moyillik, homiladorlik davrida onaning salomatligidagi muammolar kiradi. Orttirilgan omillar esa bolaning erta yoshdagi bosh miya jarohatlari, stress holatlari va yetarli pedagogik sharoit mavjud emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ushbu bolalarning rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda L.S. Vygotskiy, A.R. Luriya, N.N. Traugott kabi olimlar muhim hissasini qo'shgan.. T.A. Vlasova, M.S.Pevzner, V.I.Lubovskiy, T.V.Egorova, K.S.Lebedinskaya, N.A.Nikashina, K.K.Mamedov, G'.B.Shoumarov, N.A.Sipina, R.D.Triger boshqa olimlarning ma'lumotlariga ko'ra boshlangich sinf o'quvchilarining 5, 8 foizini ana shunday bolalar tashkil etadi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida mamlakatimiz defektologlari ishlarida ham bu masalaning turli tomonlari e'tiborga olinadi. Bunday orqada qolishning asosiy sabablariga bosh miyaning minimal, yuzaki, yengil zararlanishi, tugilish vaqtidagi, homila davrida yoki go'dakning ilk yoshidagi zararlanishlari kiradi. Rivojlanishning orqada qolishi, susayishi deganda, ruhiy rivojlanishning bola yoshiga to'g'ri kelmasligi tushuniladi.

L.S. Vygotskiy – u ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning rivojlanishi atrof-muhit va ijtimoiy omillarga bog'liq ekanligini ta'kidlagan.

A.R. Luriya – bolalarning psixologik va neyropsixologik xususiyatlarini tadqiq qilgan, RRSB da diqqat va xotira jarayonlarining sustligini o'rgangan.

N.N. Traugott – bolalarning nutqiy rivojlanish buzilishlarini tahlil qilib, maxsus pedagogik yondashuvlarni taklif qilgan.



Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning asosiy xususiyatlari

Ruhiy rivojlanishi susrlashgan bolalar quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

1. Kognitiv rivojlanishdagi o'ziga xosliklar  
Diqqatni uzoq vaqt jamlay olmaslik  
Xotira jarayonlarining sekinligi  
Tafakkur jarayonlarining sustligi va mustaqil fikrlash qiyinligi  
Mantiqiy bog'liqliklarni tushunishda qiyinchiliklar
2. Nutqiy rivojlanishdagi muammolar  
Leksik zaxira kamligi  
Grammatik xatolar va so'z birikmalaridan noto'g'ri foydalanish  
Fonetik jihatdan tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish  
Og'zaki va yozma nutqni shakllantirishdagi sustlik
3. Emotsional-hissiy rivojlanishdagi muammolar  
Tez ta'sirchanlik yoki tajovuzkorlik  
Tashqi omillarga haddan tashqari bog'liqlik  
O'z-o'zini boshqarish qobiliyatining sustligi  
Hissiy barqarorlikning zaifligi
4. Ijtimoiy rivojlanishdagi muammolar  
Jamoada muloqot qilishda qiyinchiliklar  
Yangi sharoitlarga moslashishning sekinligi  
Mustaqil faoliyat olib borishning qiyinligi

**Xulosa.** Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar umumiy aqliy rivojlanish sur'atining yoshiga mos kelmasligi bilan tavsiflanadi. Ularning kognitiv, nutqiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishidagi muammolar individual yondashuv va maxsus pedagogik metodlarni talab qiladi. Ushbu bolalar diqqatni uzoq vaqt jamlay olmasligi, tafakkur jarayonlarining sustligi, leksik zaxiraning cheklanganligi va ijtimoiy moslashuv muammolari bilan ajralib turadi. RRSB bolalarni erta aniqlash va ularga mos ta'lim sharoitlarini yaratish ularning jamiyatga integratsiyasini yengillashtiradi. Maxsus pedagoglar, logopedlar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik bolaning rivojlanish jarayonini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, maxsus ta'lim dasturlari, logopedik mashg'ulotlar va psixologik yordam ushbu bolalarning hayot sifatini oshirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Kelajakda inklyuziv ta'lim muhitini takomillashtirish, defektologik tadqiqotlarni rivojlantirish va innovatsion logopedik texnologiyalarni qo'llash orqali ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ta'lim jarayonidagi imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5679836>
2. M.U. Xamidova. Maxsus pedagogika. - T.: «Fan va texnologiya», 2018
3. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR DIAGNOSTIKASI "Maxsus ta'lim metodikalari" kafedrası P.f.n. dots. D.A.Nurkeldiyeva katta o'qituvchi M.U.Hamidova
4. Vygotskiy L.S. (1983). Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika.